O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60230100 – 2.02
2021- yil “__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021 - yil “__”_____

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan dasturi SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil _____dagi ____-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti o‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi _____sonli bayonnoma).

Fakultet o‘quv-uslubiy kengash raisi: **dots. Sh.Mahmadiyev**

Fan dasturi Filologiya fakulteti Ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi _____sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengash raisi **prof. A.Pardayev**

Kelishildi:
SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha propektor **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi *O‘TTT 4006*	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 6	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi	**Ta’lim tili** O‘zbek		**Haftadagi dars soatlari**	
1.	**Fan nomi**	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**
	O‘zbek tilshunosligi tarixi	75	105	

2. **I. Fanning mazmuni**

“O‘zbek tilshunosligi tarixi” fanini o‘qitishdan maqsad: XX asrning so‘nggi yillarida yuzaga kelgan geosiyosiy muhit til siyosati va til tizimiga o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida rus va Evropa tilshunoslarining til sohasidagi tadqiqotlari o‘rganilardi.

Ajdodlarimiz fanlarning boshqa sohalari kabi tilshunoslikda ham dunyo ahamiyatiga molik ilmiy ishlarni amalga oshirganlari barchaga ma’lum. Istiqlol sharofati bilan oliy o‘quv yurtlarining o‘quv rejalariga «O‘zbek tilshunosligi tarixi» kursi kiritildi. «O‘zbek tilshunosligi tarixi» fani asosan obzor xarakteriga ega bo‘lib, talaba-bakalavrlarga o‘zbek tilshunosligi tarixiga doir ilmiy-nazariy va amaliy ma’lumotlar berish nazarda tutilgan. O‘qitish jarayonida talabalarga o‘zbek tilshunosligi, uning ilmiy shakllanish tarixi, taraqqiyoti, o‘zbek tilining xususiyatlarini o‘rganish borasida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamahshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Mirza Mehdixon, Sulaymon Buxoriy, Ishoqxon Ibratlar bilan bir qatorda o‘zbek tilshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat hamda XX asrdagi tilshunoslik taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan tilshunos olimlarning xizmatlari bilan tanishtirishdir.

Fanning asosiy vazifalari: Maqsadni amalga oshirish uchun mazkur maxsus kursda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan:

- «O‘zbek tilshunosligi tarixi» kursining maqsad va vazifalarini tushuntirishda «Tilshunoslik nazariyasi», «Turkiy filologiyaga kirish», «Umumiy tilshunoslik», «Lingvistik ta’limotlar tarixi» fanlarining maqsadi va vazifalari haqida ma’lumot berib, so‘ng «O‘zbek tilshunosligi tarixi» yangi kursning vazifalari to‘g‘risida atroflicha ma’lumot beriladi.
- Mahmud Koshg‘ariyning qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi ekanligi asoslab beriladi.
- Mahmud Zamahshariyning lingvistik qarashlari haqida tegishli ma’lumot berilib, uning ilmiy merosining o‘zbek tilshunosligi rivoji uchun ahamiyati tushuntiriladi.
- Mo‘g‘ullar davrida o‘zbek tilshunosligi haqida o‘sha davr manbalari

asosida zaruriy bilimlar beriladi.

- Temuriylar davrida o‘zbek tilshunosligining o‘ziga xos jihatlari tushuntirilgach, Alisher Navoiyning lingvistik qarashlari atroflicha asoslab beiladi.

- O‘zbek ma’rifatparvarlarining lingvistik qarashlari Fitrat, Behbudiy, Ashurali Zohiriy va boshqa jadidlar ilmiy merosi misolida yoritiladi.

- O‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va sho‘rolar davrida o‘zbek tilshunosligining rivoji tanqidiy ravishda o‘rganiladi.

- Mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligi rivoji alohida qimmatga ega. Mazkur davr tilshunosligiga munosib hissa qo‘shgan olimlar faoliyati o‘rganiladi. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni ijrosini ta’minlash sohasidagi ishlar tahliliga alohida e’tibor qaratiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-mavzu. «O‘zbek tilshunosligi tarixi» kursining maqsad va vazifalari.

“O‘zbek tilshunosligi tarixi” kursi predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari. Fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalar. Fanning boshqa fanlar bilan munosabati. Kursni o‘qitishning muhimligi. O‘zbek tilining o‘zbek xalqi shakllanishidagi o‘rni, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabat, tilning jamiyatdagi ko‘rinishlari: adabiy til va dialektlar; o‘zbek adabiy tilining lahjaviy asoslari. Tilshunoslik fani bo‘limlari, ular o‘rtasidagi aloqadorlik.

2-mavzu. Xalifallik davri tilshunosligi.

O‘zbek tilshunosligi tarixining shakllanishida arab tilshunosligining o‘rni. Abu Nasr Forobiyning (873-950) lingvistik qarashlari. Uning hissiy va idrokiy bilish, umumiylik-xususiylik “Mohiyat-hodisa dialektikasi haqidagi”, “Falsafatu Aristutalis” asari haqida. “Fozil odamlar shahri”, “Fanlar tasnifi haqida so‘z” asarlari tahlili.

Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) lingvistik qarashlari. Uning “Saydana” asari tahlili. Asarda 4500 dan ortiq turli xil o‘simliklar nomlarining izohlanishi. Asarning “Lug‘at” ekanligi.

Ibn Sinoning (980-1037) lingvistik qarashlari. “Asbobi hudud al hudud” asari haqida. Asarning umumiy fonetika masalalariga bag‘ishlanganligi. Ibn Sinoning A.S.Trubetskoydan bir necha asr oldin korrelyativ undoshlarni ajratishga e’tibor berganligi (k-g, q-g‘).

3-mavzu. Mahmud Koshg‘ariy qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi.

Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va faoliyati (XI asr). Uning “Devonu lug‘otit turk” asari tahlili: asarning topilishi, tarjimasi haqida. Mahmud Qoshg‘ariy qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi sifatida. Lingvogeografik qarashlari fonetik qarashlari, leksika va leksikografiyaga oid qarashlari; so‘z yasalishi, morfrlogiyaga oid qarashlari. Asarning tuzilishi. Olimning dialektologiya taraqqiyotidagi o‘rni.

4-mavzu. Mahmud Zamahshariyning lingvistik qarashlari. Mo‘g‘ullar davrida o‘zbek tilshunosligi

Mahmud Zamahshariyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida. Olimning “Al mufassal fi san’at al i’rab” – Fleksiya san’ati haqida. Mufassal kitob. (“Al mufassal”) asari haqida. “Muqaddimat-ul adab” asari. Asarning besh qismdan

	iborat ekanligi: 1) ot; 2) fe'l; 3) bog‘lovchilar; 4) ot o‘zgarishlari; 5) fe'l o‘zgarishlari. Asarda ismlarning mavzuiy guruhlarga ajratish tamoyili asosida berilishi. Mahmud Zamahshariy ilmiy-pedagogik faoliyatining baholanishi: arab grammatikasini yaratishdagi o‘rni. Bu davrda o‘zbek va uyg‘ur tillarining mustaqil tillar sifatida ajralishi. Noma'lum shaxs tomonidan yozilgan "At tuhfatuz zaxiyatu fi- lug‘atit turkiya " – "Turkiy tillar haqida noyob tuhfa" ("At-tuhfa") asari tahlili. Ergash Fozilov va M.T.Ziyaevalarning "Izo‘skanno‘y dar tyurkskomu yazo‘ku" (T., 1978 y.) asari. Asarda mentalingvistik qarashlar (tilning ijtimoiyligi haqida) fonetika va grafika, grammatik masalalar bo‘yicha qarashlar; ot va fe'lning grammatik xususiyatlari, yordamchi so‘zlar haqidagi qarashlari. Asarning yozilgan joyi masalasi bo‘yicha qarashlar. **5-mavzu. Temuriylar davrida o‘zbek tilshunosligi. Alisher Navoiyning lingvistik qarashlari** Davrga tavsif. Alisher Navoiyning lingvistik merosi. Navoiy falsafasida umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa munosabatlari; Uning imkoniyat va voqelikning til va nutqqa tegishliligi haqidagi qarashlari. Til va tillarning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlari. Alisher Navoiy chog‘ishtirma tilshunoslik asoschisi sifatida. A.Navoiyning "Muhokamatul lug‘atayn" asari tahlili. Fonetikaga, leksikaga, so‘z yasalishiga doir qarashlari, grammatik qarashlari. A.Navoiy va nutq madaniyati masalalari. Uning "Mahbub-ul-qulub" asari haqida. **6-mavzu. Zahiriddin Muhammad Boburning lingvistik qarashlari** Uning "Voqeanoma" ("Boburnoma") asarida, ayniqsa, nutq madaniyatiga oid qarashlarning berilishi. Xumoyunga yozgan maktubida yozma nutq madaniyatiga oid qarashlarining ifodalanishi. Boburning imloga, yozuvga bo‘lgan munosabati. "Boburnoma" so‘zlarni "lug‘aviy maydon" asosida guruhlashga e'tibor qaratilgan asar sifatida. **7-mavzu. O‘rta asr leksikografiyasi. Xonliklar davrida o‘zbek tilshunosligi** O‘rta asr o‘zbek leksikografiyasi taraqqiyoti: Toli Imoniyning "Badoyi al-lug‘at", "Sangloh", "Lug‘ati atrakita", "Xulosai Abbosi" – ("Sangloh"ning qisqa varianti), Muhammad Rizo Xansarning "Muntaxob-al-lug‘at", eski o‘zbekcha-turkcha "Abushqa" lug‘atining yuzaga kelishi. Mavzuiy lug‘atlarning yaratilishi. Muhammad Changiyning "Kelurnoma" asari. Abulg‘oziy Bahodirxonning lingvistik merosi. Uning "Shajarai tarokima" (1658-1661) va "Shajarai turk" (1663-1664 y.) asarlari haqida. Asarning turkiy xalqlarning kelib chiqishi tarqalishi bo‘yicha izoh beruvchi noyob asar ekanligi haqida. Olimning lingvistik qarashlari. "Mo‘g‘ul" so‘zi etimotologiyasiga doir kuzatishlari. **8-mavzu. O‘zbek ma'rifatparvarlarining lingvistik qarashlari** XX asr boshlarida Behbudiyning "Risolai asbobi savod" (1904 y.), Fitratning "Sarf" va "Nahv" asarlarining yaratilishi. Fitratning "Tilimiz" maqolasi. Ilk o‘zbek alifbolarining yuzaga kelishi Mahmudxo‘ja Behbudiyning

(1875-1919) “Ikki emas, to‘rt til kerak”, “Til masalasi”, “Sart so‘zi majhuldir”, “Sart maxlum bo‘lmadi” kabi maqolalari. “Kitobatul atfol” (1908 y.) asari.

Avloniyning lingvistik qarashlari (1878-1934 y.) Uning “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Alifbo” asarlari; A.Fitratning tilshunoslik merosi (1886-1938). “Sarf” va “Nahv” asarlari tahlili.

Ashurali Zohiriyning lingvistik merosi (1885-1937). Uning “Imlo” (1916 y.) kitobi. Punktuatsiya bo‘yicha qarashlari.

9-mavzu. O‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi. Sho‘rolar davrida o‘zbek tilshunosligi

XIX asr oxirida va XX asr boshlarida yaratilgan va o‘zbek (sart) tilini o‘rganishga ko‘maklashadigan asarlar, grammatikalari, o‘quv lug‘atlarining nashr etilishi. N.Ostroumov, V.Nalivkin, M.Nalivkina, I.A.Belyaev, M.A.Terentev, V.A.Aleksev, S.Lapin kabi shaxslarning bu boradagi xizmatlari.

E.D.Polivanov – mashhur turkolog olim. Uning hayoti va ijodiy faoliyati. “Toshkent dialektining tovushlar tarkibi” (1922 y.) “O‘zbek tilining qisqacha grammatikasi” (I, II, III qismlar) asarlari haqida.

Qayum Ramazonning tilshunoslik qarashlari. “O‘zbek tili”, “Til saboqlari”, “Lug‘atning boyishi” kabi ishlari.

10-mavzu. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi

Faxri Kamolov, Ulug‘ Tursunov **,** G‘ozi olim Yunusov, Ulug‘ Tursunov, Ayub G‘ulomov, Said Usmonov, O.Usmonov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqa-rova, G‘. Abdurahmonov, Tursun Ibragimov, Fattoh Abdullayev kabi olimlarning lingvistik faoliyatlari haqida.

A.G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti. Uning “O‘zbek tilida aniqlovchilar” (1940 y.), “O‘zbek tilida kelishiklar”, “Badiiy asar tili haqida” (1941 y.), “O‘zbek tilida tarixiy so‘z yasalishi muammolari” (1955, doktorlik dissertatsiyasi), “Sintaksis” bo‘yicha asarlari tahlili.

Toshkent va Samarqand ilmiy tilshunoslik maktablarining izdoshlari: A.Hojiyev, S.Ibrohimov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, J.Muxtorov, M.Mirtojiyev, V.V.Reshetov, N.Mamatov, A.Mahmudov, J.Omonturdiyev kabi olimlarning o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari haqida.

11-mavzu. O‘zbek yozuvi taraqqiyoti masalasi

O'zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatib kelingan asosiy yozuv tizimini fonografik, ya'ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alfavit tashkil etgan. O'zbek xalqi Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari singari *oromiy, yunon, karoshta, sug‘d, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, o'rxun (runik), uyg'ur, arab, lotin, kirill* kabi bir qancha yozuvlardan foydalangan. O‘rxun-runik yozuvini barcha turkiy xalqlar birgalikda ijod qilganligi haqida.

1993 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi *lotin alifbosini* milliy yozuv sifatida qabul qilishga va bu yozuvga o‘tishga qaror qildi. Lotin alifbosi o‘zbek xalqi mustaqilligining bir belgisi sifatida namoyon bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgust 339-sonli qarori bilan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» tasdiqlanishi.

	12-mavzu. O‘zbek tili fonetikasi, morfemikasi va so‘z yasalishi bo‘limining shakllanishi va rivojlanishi O‘zbek tili fonetikasi amaliy ehtiyojlarni qondirish, o‘zbek tilining tovush tizimiga mos harflarni belgilash zaruriyatidan kelib chiqqan holda shakllandi va rivojlanishii, E.D.Polivanovning qarashlari, A.G‘.G‘ulomovning «O‘zbek tilida urg‘u» risolasi, V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovning «Fonetika, A.A.Abduazizov A.Nurmonovning «O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi», M.Mirtojiyevtomonidan yozilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Fonetika» asarlari. O‘zbek ilmiy tilshunosligi shakllangandan so‘z tarkibi masalasi, so‘z yasalishi muammosi. Uning o‘zbek tilshunosligi tarixida o‘rni. A.G‘ulomovning qarashlari, A.Hojiyevning xizmatilari, Y.Tojiyev va T.Mirzaqulovlarning tadqiqotlari. **13-mavzu. O‘zbek tili leksikalogiyasining shakllanishi va takomillashuvi** So‘z va uning ma’nolari haqida o‘zbek tilishunosligi tarixidagi tadqiqotlar. O‘zbek tili leksikasining shakllanishida Faxri Kamolning «Hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar» rukni ostida chop etilgan «O‘zbek tili leksikasi» va Y.D.Pinxasovning «Hozirgi o‘zbek tili leksikasi» risolalari hamda «Hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar» rukni bilan e’lon qilingan risolalarni o‘zida jamlagan «Hozirgi zamon o‘zbek tili» asari. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev tomonidan yozilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» asari. M.Mirtojiyev, I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev, B.Isabekov, R.Shukurov, E.Begmatov, 3.Do‘simov, T.Nafasov, N.Husanov, R.Yunusov, S.G‘iyosov, B. Jo‘rayev, R.Safarova, M.Narziyevalarning tadqiqotlari. **14-mavzu. O‘zbek tili frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishi** O‘zbek frazeologiyasi sohasida yaratilgan tadqiqotlar obzori. O‘zbek frazeologiyasining shakkalnishi va taraqqiyoti. Bu soha taraqqiyotida alohida hissa qo‘shgan olimlar va ularning asarlari (Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshyev, A.Mamatov kabilar misolida). **15-mavzu. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi masalalari** O‘zbek tilshunosligi leksikografiya sohasidagi tadqiqotlar. O‘rta asr leksikografiyasi haqida. Izohli va tarjima lug‘atlar. XX asrning 40-yillaridan boshlab leksikografiya yo‘nalishlarining kengayishi. Lug‘atning yangi turlari: ensiklopedik, imlo, orfoepik-morfem, chastotali, ters, frazeologik, dialektal, etimologik lug‘atlar paydo bo‘lishi. **16-mavzu. O‘zbek ilmiy grammatikasining shakllanishi** O‘zbek tilshunosligi tarixiga morfologiya va sintaksis atamalarini O. Usmonov va B.Azizovlar olib kirganligi. O‘zbek tili grammatik qurilishini chuqur ilmiy tadqiqlarda Fitrat, A.G‘ulomov, A.Hojiyev, H.Qayumiy, S.Dolimov, G‘.Abdurahmonov, H.Boltaboyeva, A.Sayfullayev, F.Ubayeva, A.Ahmedov, A.Safayev, I. Rasulov, B.O‘rinboyev, M.Asqarova, A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Berdialiyev va boshqalarning izlanishlari. **17-mavzu. O‘zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishi** O‘zbek tili grammatik qurilishini chuqur ilmiy tadqiqlarda G‘ozi Olim

Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonovlarning xizmatlari katta bo‘ldi. V.V.Reshetov «O‘zbek tilining Marg‘ilon shevasi» (1941), «O‘zbek tilining Namangan shevasi haqida» (1953) kabi maqolalari, «Toshkent viloyati qurama shevalari. Fonetik va morfologik sistema» (1952) monografiyasi; Sh.Shoabdurahmonovning “O‘zbek adabiy tili va xalq shevalari» kitoblari o‘zbek dialektologiyasining rivoji va uning fan sifatida o‘qitilishi.

18-mavzu. O‘zbek uslubshunisligi va nutq madaniyati masalalari.

XX asrning ikkinchi yarmidan o‘zbek tili stilistikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. U.Tursunov, I.Toshaliyev, E.Qilichyev, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamovlarning bu boradagi xizmatlari. O‘zbek badiiy nutqini o‘rganishda S.Karimov, B.Yo‘ldoshyev, I.Mirzayevlarning tadqiqotlari.

O‘zbek tili uslubiyati bag‘rida shakllangan o‘zbek nutq madaniyati. Bu sohaning shakllanishida hissa qo‘shgan olimlarning xizmatlari. R.Qo‘ng‘urov, E. Begmatov, Y.Tojiyev, A.Boboyev va boshqalar.

19-mavzu. Mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligi.

Mustaqillik yillari o‘zbek tilshunosligida qilingan tadqiqot ishlarining umumiy obzori. Davlat tili haqidagi qonun ijrosi. Bu sohada erishilgan yutuq va kamchiliklar.

20-mavzu. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida qilingan tadqiqot ishlari. O‘zbek tilshunosligiga kirib kelgan yangi yo‘nalishlar, tilni antroposentrik jihatdan tahlil qilish. Bu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar.

III. Amaliy (yoki <u>seminar yoki laboratoriya</u>) mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. «O‘zbek tilshunosligi tarixi» fanining o‘ziga xos xususiyatlari
2. Sharq mutafakkirlarining tilshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi
3. Mahmud Koshg‘ariyning tilshunoslik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi
4. Alisher Navoiy – buyuk tilshunos olim sifatida so‘z qudrati va turkiy tilning imkoniyatlari haqida qarashlari
5. Zahiriddin Muhammad Boburning lingvistik qarashlari
6. O‘rta asr leksikografiyasi. Xonliklar davrida o‘zbek tilshunosligi
7. O‘zbek ma’rifatparvarlarining lingvistik qarashlari
8. O‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi. Sho‘rolar davrida o‘zbek tilshunosligi
9. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishi
10. O‘zbek yozuvi taraqqiyoti masalasi
11. O‘zbek tili fonetikasi, morfemikasi va so‘z yasalishi bo‘limining shakllanishi va rivojlanishi

12.O‘zbek tili leksikalogiyasining shakllanishi va takomillashuvi
13.O‘zbek tili frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishi
14.O‘zbek lug‘atchiligining shakllanishi masalalari
15.O‘zbek ilmiy grammatikasining shakllanishi
16.O‘zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishi
17.O‘zbek uslubshunisligi va nutq madaniyati masalalari.
18.Mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligi. Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Til tarixi va xalq tarixi. Yozuv va tilshunoslik.
2. «Lingvistik ta’limotlar tarixi», «Tilshunoslikka kirish», «Umumiy tilshunoslik» kurslarining maqsad va vazifalari. «O‘zbek tilshunosligi tarixi» fanining ob’ekti va predmeti.
3. Sharq mutafakkirlarining tilshunoslikka oid qarashlari. Abu Nasr Forobiyning “Mohiyat-hodisa dialektikasi haqida”, “Falsafatu Aristutalis” asari haqida. “Fozil odamlar shahri”, “Fanlar tasnifi haqida so‘z” asarlari tahlili.
4. Beruniy va Ibn Sinoning tilshunoslikka doir qarashlari. Beruniyning «Saydana», Ibn Sinoning «Asbob hudud al-xuruf» asari.
5. Mahmud Koshg‘ariyning areal lingvistika, fonetika, leksika va leksikografiyaga oid qarashlari.
6. Mahmud Zamahshariyning “Al mufassal fi san’at al i’rab”, “Al mufassal”, “Muqaddimat-ul adab” asarlari.
7. «Tarjimon» - XVI asr yozma obidasi. «Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya» asari haqida.
8. Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy», «Muhokamatul lug‘atayn», «Mahbubul qulub», «Majolisun nafoyis» asarlaridagi tilshunoslikka oid qarashlari.
9. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarining tilshunoslik fani rivoji uchun ahamiyati
10. O‘zbek ma’rifatparvarlarining til muammolariga doir fikrlari (Fitrat, Behbudiy, Avloniy va boshqalar merosi misolida)
11. XX asrda o‘zbek tilshunosligi fani rivoji. 20-30-yillar o‘zbek tilshunosligi. E.Polivanov, U.Tursunov, G‘.Yunusov, S.Ibrohimov, K.Yudaxin va boshqalarning xizmatlari.
12. XX asrning 40-80 yillarida o‘zbek tilshunosligi. O‘zbek tili grammatikasi, o‘zbek tili tarixi, o‘zbek dialektologiyasi sohasida yaratilgan tadqiqotlar tahlili.
13. O‘zbek tilshunosligida stilistika, nutq madaniyati va adabiy norma masalalarining o‘rganilishi. G‘.Abduraxmonov, R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatov, A.Mamatov va boshqalarning xizmatlari.
14. O‘zbek frazeologiyasi sohasida yaratilgan tadqiqotlar obzori(Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov asarlari misolida).
15. Mustaqillik yillari o‘zbek tilshunosligi. Davlat tili haqidagi qonun ijrosi. Bu sohada erishilgan yutuqlar va kamchiliklar.

	16. O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari (Akademik A.Hojiyevning turkum maqolalari misolida) 17. Til – ijtimoiy hodisa: o‘rganilishi, adabiyotlar obzori 18. Til sathlarini o‘rganish sohasidagi tadqiqotlar obzori 19. Toshkent ilmiy tilshunoslik maktabining o‘zbek tilshunosligi rivojidagi o‘rni 20. Samarqand ilmiy tilshunoslik maktabining o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi o‘rni
3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • “O‘zbek tilshunosligi tarixi” fani bo‘yicha bakalavrlar o‘zbek tilshunosligi tarixini davrlashtirish masalasi, o‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatiksiga oid tadqiqotlarga doir tasavvur va bilimga ega bo‘lishi; • Tilshunoslik fanlari adabiyotshunoslik, tarix, manbashunoslik, falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, hatto tabiiy fanlar bilan uzviy bog‘liq. «O‘zbek tilshunosligi tarixi» fanini o‘qitishda aynan shu fanlar yutuqlariga ham asoslaniladi. Masalan, tilshunoslik fani rivojida Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ilmiy merosi misolida turli fanlarning uzviy bog‘liqligi to‘g‘risida talabalar muayyan bilimlarga ega bo‘lishlari talab etiladi**;** • o‘zbek tilshunosligi tarixi fani ob’ektlari misolida o‘rgangan bilimlarini, ya’ni turli yozma manbalar va Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Fitrat, A.G‘ulomov, U.Tursunov, G‘.Abduraxmonov, E.Begmatov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Qo‘ng‘urov, B.O‘rinboyev, B.Yo‘ldoshev va boshqalarning ilmiy merosi misolida egallagan bilimlarini kurs ishi, malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi yozishda, umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari va oliy ta’lim tizimida dars o‘tish jarayonida qo‘llash uchun **amaliy ko‘nikmalarni bilishlari lozim**
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma‘ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko‘rgazmali qurollar; • kompyuter; • muammoli ta’lim; • qiyosiy tahlil. • turli xil nostandart testlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil

	mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова М., Умрқулов Б.Ўзбек нутқи маданияти очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. - 192 б. 2. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий граматикаси (синтаксис). – Тошкент: Фан, 1995. - 232 б. 3. Неъматов Ҳ., Расулов Р.Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б. 4. Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. - 48 б. 5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б. 6. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 416 б. 7. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 448 б. 8. Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент, Фан, 1992. – 296 б. 9. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 264 б. 10.Замонавий ўзбек тили. 1-қисм. Морфология. - Тошкент, 2008. 11.Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. 12. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан очерк. – Тошкент: Фан, 1970. 13.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent. 2013. 14. Ўринбоев Б., Йўлдошев Б. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўқув-услубий қўлланма. – Навоий, 2002. 15. Қўчқортоев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш. - Тошкент:Ўқитувчи, 1984. – 112 б. **Qo‘shimcha adabiyotlar:** 16. Абу Али ибн Сино. Фонетика ҳақида рисола (Нашрга тайёрловчилар А.Маҳмудов, Қ.Маҳмудов).- Тошкент: Фан, 1979. 17.Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. - Тошкент: Чўлпон, 1992. 18.Абулғози Баҳодирхон. Шажараи тарокима. - Тошкент: Фан, 1992. 19. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. 20. Абдусаидов А. Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти. – Самарқанд, 2008. 21.Акобиров С. Луғат – сўз хазинаси. – Тошкент: Фан, 1977. - 40 б. 22.Бердиёров Ҳ., Хўжаев Т., Йўлдошев Б. Умумий тилшунослик.- Самарқанд: СамДУ нашри,1979. 23.Дадабоев Ҳ. “Бобурнома”даги баъзи бир терминларга доир мулоҳазалар // Адабий мерос, 1988, 43-сон, 37-42-б.

24. Долимов У. Исҳоқхон Ибратнинг тилшуносликка оид икки асари ҳақида // Ўзбек филологияси масалалари, 395-чиқиши. -Тошкент: ТошДУ нашри, 1970, 132-144-б.
25. Замонавий ўзбек тили. 1-қисм. Морфология. - Тошкент, 2008.
26. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.
27. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан очерк. – Тошкент: Фан, 1970.
28. Стеблева И.В. Захириддин Мухаммад Бобур – поет, прозаик, ученый. - Ташкент: Фан, 1983.
29. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -T.: «Fan va texnoiogiya», 2010. – 404 b.
30. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилшунослигининг ҳозирги тараққиёт босқичида пайдо бўлган айрим мунозарали масалалар ҳақида // ЎзМУ хабарлари, 2003, 1-сон, 3-8-б.
31. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
32. Холманова З. “Шайбонийхон” достони лексикасидаги ҳарбий атамалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 4-сон, 64-66-б.
33. Холманова З. “Бобурнома”даги айрим сўзларнинг семантик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003, 5-сон, 82-83-б.
34. Ҳасанов Б. Алишер Навоийнинг «Сабъат абхур» луғати. – Тошкент: Фан, 1981. -101 б.
35. «Ўзбек тили ва адабиёти» журналининг 1991-2014 йиллар сонлари. Академик А.Ҳожиевнинг туркум мақолалари.
36. Замонавий ўзбек тили муаммолари(«Улуғ Турсунов ва замонавий ўзбек тили муаммолари(Ҳ.Бердиёров, А.Сулаймонов, Ж.Мухторов илмий мероси мисолида)» мавзуидаги илмий анжуман материаллари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011.
37. «Давлат тили ҳақида»ги қонун: муаммо ва ечим («Давлат тили ҳақида»ги қонун ижроси амалда» мавзуидаги илмий конференция материаллари). Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011.
38. Ўзбек тилшунослиги тарихи масалалари («Улуғ Турсунов ва ўзбек тили тарихи масалалари» мавзуидаги илмий анжуман материаллари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2012.

Lug‘atlar.

1. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғатит турк.
2. «Бадойи ал луғат».
3. «Санглоҳ» луғати.
4. Алишер Навоий. Муҳокамат-ул луғатайн.
5. ЎЗБЕК ТИЛИнинг изоҳли луғати. I-V томлари. –Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2006-2008.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 2-жилд(араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет,

	2003. **Axborot manbalari (saytlar):** 1. www. ziyonet. uz 2. www.ziyouz.com 3. www. literature.uz.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy кengashining 2021-yil _____ ____-son bayonnomasi bilan ma’qullangan**.**
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar**: Sh. Mahmadiyev – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. U.Turdimurodov – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** A.G‘afforov – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsent, filologiya fanlari nomzodi (ichki), X.Xayrullayev – SamDChTU kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)